



XALQIMIZNING G'URURI VAIFTIXORI

RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARILADI

2

3

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2025-yil 28-aprel № 4 (1550)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

9-may - Xotira va qadrlash kuni

Xotira va qadrlash kuni – g'urur va qayg'u kunimiz. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashgan, ikkinchi jahon urushida janglarda qatnashgan, front ortida sabroqat va qat'iyatlilik, mehribonlik hamda rahm-shafqat, matonat ko'ssatgan haqiqiy qahramonlarni qadrlash va sharaflash, xotirlash kuni.

9-mayda ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk G'alabaning 80 yilligi ham nishonlanadi. Fashizmga qarshi kurashda halok bo'lgan minglab vatandoshlarimizning so'nmas xotiralarini yod etib, ularning ruhi poklariga hurmat bajo keltirish – biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Ayni vaqtida mustaqil Vatanimiz ozodligi, el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan jasur harbiyalarimizning nomlarini ham hurmat va ehtirom bilan esga olamiz.



18-may kuni O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishda, xalqimizning farovonlikka erishib borishida metallurgiya sanoati muhim o'rinn tutadi. Bugun mamlakatimizning qaysi joyida bo'lmang metallurglarning mehnati bilan yaratilgan mahsulotlarga ko'zingiz tushadi. Zamnaviy binolar, yirik inshootlar, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari "O'zmetkombinat" Ajda tayyorlangan prokat mahsulotlari bilan qad roslamoqda.

Kombinatning ko'p ming kishilik jamoasiga mehnatda yuqori marralarni zabit etishida muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

Kelayotgan kasb bayramingiz muborak bo'lsin, aziz metallurglar!

BUGUNGI SONDA

XOTIRA

Inson qadri ulug', xotirasi abadiy 4

QADR

Insoniy burchimiz 5

BUGUNNING GAPI

Tabiatni asrang 7

MANFAATLAR TO'QNASHUVI

Katta zarar keltiradi 8

SUD MAJLISIDA

"Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" 9

SO'RAGAN EDINGIZ

... Xavf tug'ilsa nima qilish kerak? 10

SALOMATLIK

Bedavo va juda xavfli 11

TAFAKKUR QIL

"Menden baxtli odam yo'q" 12

XALQIMIZNING G'URURI VA IFTIXORI

Hurmatli metallurglar, qadrli ishlab chiqarish faxriylari, hamkorlarimiz va bekobodliklar!

Sizlarni kirib kelayotgan kasb bayramimiz – O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni bilan chin qalbimdan tabrikayman!

Har yili may oyining uchinchi yakshanbasida nishonlanadigan ushbu kasb bayrami mammakatimiz sanoat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va mustaqillik asoslaridan biri bo'lgan po'lat mahsulotlari tayyorlayotgan insonlarning fidokorona mehnatiga ehtiromdir.

"O'zmetkombinat" AJ O'zbekiston metallurgiya sanoatida haqli ravishda alohida o'rinn tutadi. Uning davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga qo'shgan hissasi salmoqli va ahamiyati kattadir. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro andozalarga javob beradigan yuqori sifati tashqi bozorda ishonchli raqobatlashish, yangi eksport yo'nalishlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish imkonini bermoqda.

Korxona mahsulotlari respublikada ham, xonrida ham xaridorgir bo'lib, bu mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash va sanoat nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, global muammolar va iqtisodiy o'zgarishlar fonida kombinat import o'rnini bosish siyosatini faol amalga oshirayotgani, bu orqali tashqi ta'minotga qaramlikni kamaytirib, mammakatimizning xorijiy valyutani tejasliga hissa qo'shayotgani alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korxonada ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilinmoqda, ilg'or texnologiyalar

joriy etilmoqda, sifat menejmenti tizimi takomillashtirilmoxda. Bu larning barchasi oddiy ishchidan tortib muhandisgacha, barchaning puxta muvofiq lashtirilgan mehnati samarasidir.

"O'zmetkombinat" AJ nafaqat yirik korxona, balki Bekobod shahrining eng muhim ijtimoiy-madaniy markazidir. Shahar va kombinat taqdiri qariyb 80 yil davomida uzviy bog'liq. Joriy yilda jonajon Bekobodimiz tashkil topganining 80 yilligi nishonlanadi. 1945-yil 7-mayda tashkil etilgan shahar Buyuk G'alaba bilan tengdosh bo'lib, bunyodkorlik timsoliga aylandi. Shahar ravnaqi metallurgiya korxonasi faoliyati, ilk quruvchilarning fidoyiligi, bugungi farovonlikka poydevor qo'ygan faxriylarning qahramonona mehnati bilan uzviy bog'liq.

Bu oyda yana bir muhim sana – 9-may – Xotira va qadralash kunini alohida ehtirom bilan nishonlaymiz. Tinch osmon, avlodlar kelajagi uchun jon fido qilganlar xotirasini oldida bosh egamiz. Bizning burchimiz – Buyuk G'alaba va g'oliblarining jasorati va matonati haqidagi haqiqatni asrab -avaylash va kelajak avlodlarimizga yetkazishdir. Bu g'oliblar orasida bekobodlik bo'lajak metallurglar, quruvchilar, sementchilar ham bor



edi. Endilikda ularning avlodlari ota-bobolaring ulug'vor an'analarni davom ettirmoqda.

Bu muhim va unutilmas bayramlar – Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni, Xotira va qadralash kuni hamda Bekobod shahrining 80 yilligi avlodlar almashinuvi, erishilgan natijalar uchun g'urur va kelajakka ishonchning birlashtiruvchi timsoliga aylandi.

Metallurglarga, ishlab chiqarish faxriylariga, hamkorlarimizga jonajon Vatanimiz ravnaqiga qo'shgan hissasi uchun samimiy minnatdorlik bildiraman. Barchaga mustahkam sog'liq, oilaviy farovonlik, bitmas-tuganmas kuch-quvvat, yangi ishlab chiqarish muvaffaqiyatlari tilayman!

Dilshod AXMEDOV,

"O'zmetkombinat" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktor.

METALLURGIYA SOHASIDA XAVFLARNI BOSHQARISH:

"O'ZMETKOMBINAT" AJNING BARQAROR TARAQQIYOT STRATEGIYASI

Hozirgi kunda xavflar biznesning ajralmas qismiga aylandi, ayniqsa, metallurgiya kabi murakkab va yuqori raqobatbardosh sohada. Global iqtisodiy o'zgarishlar va tashqi bozorlardagi o'zgarishlar sharoitida metallurgiya sanoati ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli, "O'zmetkombinat" AJ kabi katta ishlab chiqarish korxonalari uchun xavflarni samarali boshqarish tizimini yaratish juda muhimdir. Bu nafaqat ehtimoliy xavflarni minimallashtirish, balki taraqqiyot uchun imkoniyatlardan foydalanishga ham yordam beradi.

XAVFLARNI BOSHQARISH BU NIMA?

Xavflarni boshqarish – bu korxona uchun ehtimoliy xavflarni aniqlash, baholash va ularni minimallashtirishga qaratilgan choralar majmuasidir. Xavflar turlicha bo'lishi mumkin: iqtisodiy, ekologik, texnologiyaviy, huquqiy, ijtimoiy va boshqalar. Har bir xavf korxonaning faoliyatiga, moliyaviy holatiga va reputatsiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun xavflarni bosh-

garish tizimini yaratish har qanday katta ishlab chiqarish korxonasi uchun muhim vazifa hisoblanadi.

"O'ZMETKOMBINAT" AJ XAVFLARNI QANDAY BOSHQARADI?

"O'zmetkombinat" AJ – O'zbekistonning eng yirik metallurgiya kombinatidan biri bo'lib, nafaqat mamlakatning metall mahsulotlariga bo'lgan ichki ehtiyojini ta'minlaydi, balki xalqaro savdoda ham faol qatnashadi. Bunday katta mas'uliyatga ega bo'lgan korxona uchun xavflarni diqqat bilan boshqarish juda muhim. Shunday ekan, "O'zmetkombinat" AJ xavflarni o'z faoliyatining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi va har bir ishlab chiqarish jarayonini to'liq nazorat qilib, xavflarni minimallashtirish uchun choralar ko'radi.

INNOVATSIYALAR VA XAVFLARNI OLDINDAN TAXMIN QILISH

Shuningdek, kombinatda xavflarni oldindan taxmin qilish

uchun zamonaviy vositalardan foydalilanadi. Bu, ehtimoliyxavflarni erta aniqlashga va ularga qarshi strategiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Bundan tashqari, sanoatning raqamli transformatsiyasi ham xavflarni aniqlash va ularga tezkor javob berishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

XULOSA

Xavflarni boshqarish – bu fagaqat bir nechta jarayonlarning majmuasi emas, balki korxonaning barqarorligini ta'minlashga yordam beradigan strategik jarayondir. "O'zmetkombinat" AJ bu sohaga alohida e'tibor qaratgan holda, xavflarni boshqarishning kompleks va tizimli yondashuvi orqali barqaror va samarali faoliyat yuritishga harakat qilmoqda.

Metallurgiya sanoatida kelajki kafolatlash uchun xavflarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega va "O'zmetkombinat" AJ ushbu yo'nalishda o'z faoliyatini davom ettiradi, bu orqali kombinat o'z sohasida yetakchi mavqeni saqlab qoladi va mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo'shadi.

"OCHIQLIK INDEKSI - 2024":

"O'ZMETKOMBINAT" AJ "YASHIL" TOIFADAGI O'RНИNI YANADA MUSTAHKAMLADI

2024-yil yakunlari bo'yicha Ochiqlik indeksi e'lon qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligida ochiqliknin ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash komissiyasining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-154-son Farmoniga muvofiq, 2024-yil yakunlariga ko'ra davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksi asosida to'plangan barcha ko'rsatkichlar atroficha muhokama qilinib, yakuniy natijalar ko'rib chiqildi.

Bu yilgi baholashda jami 98 ta respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari – vazirlilik, qo'mita, agentlik, inspeksiyalar va mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati qamrab olindi.

Uchinchi bor e'lon qilinayotgan Ochiqlik indeksi 84 ta baholash mezonidan tarkib topgan 8 ta indikator asosida shakllantirilib kelinmoqda. Indeksda samaradorlik ko'rsatkichlari 71,4 balldan 91,8 ballgacha to'plaganlar – "yashil", 55,5 balldan 70,7 ballgacha bo'lganlar – "sariq" va 54,9 balldan past ko'rsatkich qayd etganlar – "qizil" toifalarga kiritildi.

"Ochiqlik indeksi-2024" bo'yicha "O'zmetkombinat" AJ undan avvalgi yildan 3,7 ball ko'p, jami 81,2 ball to'plab, "Yashil" toifadagi o'rnini yanada mustahkamladi.

28-APREL – BUTUNJAHON MEHNATNI MUHOFAZA QILISH KUNI

KATTA AHAMIYATGA EGA

Xalqaro Mehnat Tashkilotining tashabbusi bilan 2003-yildan boshlab 28-aprel "Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni" deb e'lon qilingan. Shu kuni 180 dan ortiq davlatlarda mehnat muhofazasi masalalariga bag'ishlangan turli mavzularda tadbirlar o'tkaziladi. Bu tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad ish joylarida sodir bo'layotgan yengil, og'ir va o'lom bilan tugagan baxtsiz hodisalarining oldini olish hamda mehnat muhofazasi masalalariga diqqat-e'tiborni kuchaytirishdir.

Mehnat hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, har birimiz unga nafaqat munosib haq to'lanishini, balki imkon qadar xavfsiz va qulay bo'lismeni istaymiz. Butunjahon mehnatni muhofaza qilish kuni, bu – xavfsiz, sog'lom va munosib mehnat sharoitlarini targ'ib qilishga qaratilgan yillik xalqaro kampaniyadir. Ushbu kun butun dunyoda baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining oldini olishga hissa qo'shishga qaratilgan bo'lib, u ish joylaridagi xavfsizlik va sharoitlarni qanday yaxshilash mumkinligi hamda ish joylaridagi sog'lioni saqlashning siyosiy ahamiyatini qanday targ'ib qilish haqidagi xabardorlikni oshirishning muhim vositasidir.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti tuzilganidan buyon mehnatni muhofaza qilish masalalari bilan bog'liq ko'pgina xalqaro mehnat normalarini qabul qildi. Ushbu hujjatlar kasbiy xavf-xatarlarni nazorat qilish va boshqarishni ta'minlashning

minimal standartlarini belgilaydi, shuningdek, kasblar bo'yicha ishchilarni turli xil mehnat sharoitida himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Shulardan "Mehnat xavfsizligi va gigienasi to'g'risida"gi 155-sonli hamda "Mehnat xavfsizligi va gigienasiga ko'maklashish asoslari to'g'risida"gi 187-sonli konvensiyalari bir-birini to'ldirib, xavfsiz va sog'lom mehnat muhitini ta'minlash uchun tegishli tamoyillar, majburiyatlar va huquqlarni aks ettirgan asosiy xalqaro hujjatdir.

Mehnatni muhofaza qilishga dunyoning aksariyat mamlakatlari qatori, O'zbekistonda ham juda katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Mehnat jamoalarida ishchi-xodimlarga munosib mehnat sharoitlari yaratish, mehnat muhofazasi madaniyatini rivojlantirish, ishlab

chiqarishdagi jarohatlanish va kasb kasalliklarining oldini olish, mehnat muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirisha, xususan ish joylarida sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi.

Mehnatning xavfsiz usul va uslublarini, yong'in xavfsizligi qoidalarni yaxshi bilgan va ularga amal qilgan ishchi-xodimlar o'rtaida baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari deyarli uchramaydi. Aksincha bo'lganda esa ko'p hollarda bu baxtsiz hodisalar sababi bo'lishi ehtimoli katta.

Shuning uchun ham rahbarlar va mutasadilar mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va yong'in xavfsizligi bo'yicha ishchi-xodimlar bilimlarini oshirishlari hamda ularga rioya etilishini qa'tiy nazoratga oishlari baxtsiz hodisalarining oldini olishda katta ahamiyatga ega.

Korxonalarda barcha uchun munosib mehnat muhofazasini ta'minlashga qaratilgan yetarlicha mexanizmlar shakllantirilgan bo'lishiga qaramasdan, har bir rahbar, ishchi-xodim ish joyidagi yaratilgan sharoitlar avvalambor mehnatni muhofaza qilishning barcha talablariga javob bergen taqdirdagina samarali va xavfsiz ishlashi mumkinligini tushunib yetmog'i lozim.

**O'ktam O'SAROV,
mehnatni muhofaza qilish
bo'yicha davlat texnik inspektorি.**



QUYUV-PROKATLASH MAJMUASI

RAQOBATBARDOSH MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARILADI

Metallurgiya iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, mamlakat sanoat salohiyatini rivojlantirishda strategik rol o'ynaydi. U sanoatning eng muhim tarmoqlarini, shu jumladan mashinasozlik, qurilish, transport, energetika va boshqa sohalarni xomashyo va mahsulotlar bilan ta'minlaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston modernizatsiya qilish, import o'rnnini bosish va ishlab chiqarish quvvatlari ni kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı investitsiya loyihaligaga tayanib, ushbu sohada barqaror o'sishni namoyish etmoqda.

Investitsiya dasturini amalga oshirishdagi eng muhim qadamlardan biri "O'zmetkombinat" Ajda Quyuv-prokatlash majmuasini qurish "loyihasi bo'ldi. Ushbu zamona viy sanoat ob'ekti mamlakatni ichki va tashqi bozorda turli sohalarda ehtiyoj katta bo'lgan yuqori sifatli issiq prokatlangan po'lat o'ramlari (listlar) bilan ta'minlaydi.

Quyuv-prokatlash majmuasining ishlab chiqarish quvvati yiliga

1 million tonnadan ortiq issiq prokatlangan po'lat o'ramlari ishlab chiqarish imkonini beradi. Barcha mahsulotlar qat'iy xalqaro andozalarga javob beradi: listlarning qalinligi 1,4 mm.dan 12 mm.gacha va kengligi 800 mm.dan 1300 mm.gacha. Bu parametrlar mahsulotlarni jahon bozorida raqobatbardosh qiladi, kombinatning eksport imkoniyatlarini kengaytiradi.

KENGASHIB OLINDI

Metallurglar Madaniyatsaroyida 22-aprelkuni "O'zmetkombinat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishga Zoom platformasi orqali kombinat Kuzatuv kengashi a'zosi – Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat aktivlarini xususiyashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori Jamshid Abdushukurov raislik qildi.

Umumiyligi yig'ilishda ikkita masala ko'rildi. Birinchi masala – aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligi yig'ilishi reglamenti va sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash yuzasidan Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i Shahnoza Abdurahmonova ma'lumot berdi. Ikkinci masala – "O'zmetkombinat" AJ tarkibiy bo'linmalari negizida ajratib chiqarish yo'li bilan qayta tashkil etish orqali shu'ba xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish, ajratib chiqarish tartibi va shartlarini belgilash hamda taqsimlash balanslarini tasdiqlash haqidagi kombinat bosh buxgalteri Bahodirjon Eshonxo'jayev ma'lumot berdi.

Yig'ilish davomida aksiyadorlarning savollariga javoblar berildi. Yig'ilish kun tartibiga kiritilgan barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

REJALAR BAJARILMOQDA

Ferroqotishmalar metallurgiya sanoatida po'latning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni ferrosilitsiy va ferrosilikomarganes qora metallurgiya sanoatida po'latni deoksidlovchi sifatida keng qo'llaniladi. Ular po'latning mustahkamligini, bardoshliligi va egiluvchanligini oshiradi.

Bundan deyarli yetti yil avval ishga tushirilgan Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasi endilikda ferrosilitsiy va ferrosilikomarganes bilan kombinat ehtiyojini qoplab kelmoqda. Mart oyida 2169 tonna ferroqotishmalar ishlab chiqarilib oylik reja 100,9 foizga bajarildi.

LI DA Metal mehnat jamoasi ham Konchilik va metallurgiya sanoati kuni – kasb bayramini ishlab chiqarish reja-topshiriqlarini bajarib, mehnat yutuqlari bilan kutib olmoqda. Mart oyida bu korxonada 13 800 tonna po'lat eritilib reja yuz foizga bajarildi.

INSON QADRI ULUG', XOTIRASI ABADIY

QALBLARDA BITMAS JAROHAT QOLDIRDI

Ikkinci jahon urushi insoniyat tarixidagi eng mudhish, eng beshafqat to'qnashuv bo'lgan. Jangu jadallar Yevropa, Osiyo va Afrika qit'alarida kechgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, bu urushda millionlab insonlar halok bo'lgan. Yer yuzi behisob vayronagarchilik va qahatchilikka yuz tutgan.

Ikkinci jahon urushida frontga safarbar etilgan 1 million 950 mingdan ziyod o'zbekistonlik jangchilardan 538 mingdan ko'prog'i halok bo'lgani, 158 mingdan ortig'i bedarak yo'qolgani, 870 mingdan oshig'i turli jarohatlar olgani, 60 ming nafardan ziyodi esa nogiron bo'lib qaytGANI bu g'alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu ma'lumotlar har uch o'zbekistonlikdan biri qo'liga qurol olib, fashizmga qarshi kurashib, yurti va umuminsoniyat uchun



tinchlik o'rnatilishida hissa qo'shganidan dalolat beradi.

O'zbekiston aholisi urush tufayli uy-joyi, ota-onasi va qarindoshlaridan ajralgan, suronli hududlardan ko'chirib keltirilgan qariyb 1,5 million kishini bag'riga oldi. Ularning 250 mingdan ziyodi bolalar edi.

Ana shu qirg'in barot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsada, hamon unutib bo'lmaydi.

SUKUT SADOSI

Bulbullar sayramang, uchma qaldirg'och, Momo yer bag'rimi tilmagil omoch. Poyingda yotgan kim, aytgil qayrog'och, Otamga quroldosh bobodir balkim, Bir lahma sukutga sadodir balkim?!

So'nggi jang, so'nggi kun, so'nggi qon oqib, Yorini eslasa tun oyga boqib, To'lin oy ko'zida qolgandir qotib. Shu o'g'lon fidoyi bahodir balkim, Bir lahma sukutga sadodir balkim?!

Nomsiz tepalikda qolgan erkaklar, Yurtiga termulib tolgan erkaklar, Dunyoni qutqarib qolgan erkaklar, Otamdek bir dehqon bobodir balkim, Bir lahma sukutga sadodir balkim?!

Armonin qushlarga aytgan botirim, Yurtiga ruh bo'lib qaytgan botirim, Bir tishlam nasibang – qotgan patirim, Tushimda yo'qlagan bobodir balkim,

Bir lahma sukutga sadodir balkim?!

Ruh bo'lsang, qaldirg'och, uyimga uy qur, Ruh bo'lsang bulbulim, kel dardlashib tur, Humo qushim kabi ardog'imda yur – To abad shod bo'lsin bobolar ruhi, So'nmasin xotira – sukut shukuhi!

Hech xira tortmasin qalqon yalovlar, O'chmasin muqaddas "Mangu olov"lar!

Bozorboy SAYDIN.

"MATONAT MADHIYASI"

Toshkent shahridagi "G'alaba" bog'ining markazida "Matonat madhiyasi" deb atalgan muazzam obida joy olgan. Mazkur yodgorlik majmuasi qandaydir badiiy obraz emas, unga hayotda bo'lgan voqe - mo'tabar ona va uning oilasi to'g'risidagi haqiqat asos qilib olingan.

Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog'ida yashagan Zulfiya aya Zokirova ikkinchi jahon urushida bir emas, besh o'g'lidan - Isoqjon, Ahmadjon, Mahamadjon, Vahobjon, Yusufjon ismli aziz farzandlaridan judo bo'lgan. Uning to'rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo'lib qolgan. Kelinlari ham Zulfiya ayadan o'rnak olib, o'z oilasiga sodiq qolgan, boshqa turmush qurmagan.

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, yozuvchi Alinazar Egamnazarovning so'zlariga ko'ra, ikkinchi jahon urushida bir oiladan besh nafar farzand urushga ketib hech biri qaytmagan oila dunyoda uchta bo'lib, ular Belarus va AQSHda, yana biri Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog'ida yashagan Zulfiya aya Zokirova oilasidir.

Ushbu yodgorlik butun xalqimiz uchun qutlug' ziyoratgohga, oila, muhabbat, vafo va sadoqat timsoliga aylanib qoldi. Bu yerga kelgan yoshlар millatimizning qonida bo'lgan fazilatlarni anglab, ularni qadrlab yashashga intiladi.

O'tganlarni eslash, xotirlash hammamiz uchun muqaddas burch, yonimizda yurgan, qarilik gashtini surayotgan otaxonu-onaxonlarimizni qadrlash, hummatlarini joyiga qo'yish esa sharafli vazifamizdir. Kunlar o'taveradi, kechagi kun ertaga tarixga aylanadi. Xuddi shuningdek, yillar o'tib avlodlar almashib borishi ham hayotning beshafqat qonunlaridan biri.

DOIMO QALBIMIZDASIZ

2004-yilda kombinatimizda ishlagan 44 nafer urush ishtiroychisi Faxriylar kengashi hisobida turgan bo'lsa, davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda ular soni yuzga yaqin edi. Bugun oramizda ulardan hech biri yo'q. Lekin ularning porloq xotirasi qalbimizda yashaydi.

Ko'p yillar kombinatimizda mehnat qilgan ana shunday urush va mehnat faxriylaridan biri Xudoyqul ota Ergashev bugun hayot bo'lganida 100 yoshga to'lgan bo'lar edi.

Xudoyqul ota 17 yoshida 1942-yilning yanvarida frontga jo'nadi. Harbiy tayyorgarlikni o'tab, Rossiya shaharlarini fashist bosqinchilaridan ozod etishdagi qaqshatgich janglarda ishtiroy etdi. Jang maydonlarida og'ir yarador bo'lib, gospitalga yotqizildi. Ikki oy davomida gospitalda davolanib, sog'ayib chiqqach yana quroldoshlari safiga qaytdi.

Shundan so'ng X. Ergashev Belorusiya frontida xizmatni davom ettirdi. Nemis fashist bosqinchilaridan Minsk shahri va boshqa aholi yashash joylarini dashmandan ozod qilish uchun olib borilgan janglarda matonat ko'rsatdi. Janglardan birida yana yarador bo'lib gospitalda davolandи. Tajribali jangchi tez orada safdoshlari oldiga qaytib xizmatini davom ettirdi. Germaniya ustidan qozonilgan g'alabidan so'ng Xudoyqul ota Yaponiyaga qarshi urushda ham qatnashib, ularni ham tor-mor etishda faol qatnashdi.

Urush tugagach Xudoyqul ota ona shahri Beko-



bodga qaytdi. Otaxon urushdan so'ng bir oz Bekobod sement zavodida, keyinchalik 1948-yilning yanvaridan O'zbekiston metallurgiya zavodining Marten sexida po'lat erituvchi yordamchisi vazifasida ishladi. So'ng prokat sexining tunika chiqarish uchastkasida elektrgazpayvandlovchi vazifasiga ishga o'tdi. 1950-yillarda zavodning Temir yo'l sexida poezd tuzuvchi vazifasida mehnat qildi. Bu sexda 1980-yilgacha pensiyaga, chiqqunga qadar samarali mehnat qildi.


Janggohlardan omon qaytib, fidokorona mehnati bilan yurt ravnaqiga hissa qo'shgan bunday insonlarning xotirasi o'chmaydi. Olamdan o'tganlar xotirasini unutmaslik, oramizdag'i insonlarni, ayniqsa, keksa kishilarni qadrlash har birimizning burchimizdir. Xotira va qadrlash kuni sharofati bilan biz bu burchimizni yanada teranroq his etmoqdamiz. Zero biz ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Ismat DIYOROV.

Hayot qonuniyatiga ko'ra, vaqt o'tishi bilan ko'p narsa unutiladi, esdan chiqadi. Lekin bu yorug' dunyoda ulug' bir haqiqat borki, u hech qachon o'zgarmaydi, hech qachon eskirmaydi. Ya'ni, odamlar qalbida ota-onalar, qarindoshlar, do'stlar, hamkasblar va Vatan va xalqning baxtu saodati yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan insonlar xotirasi hamisha barhayot yashaydi.

Bu maqolamizda hamkasblar va hamkorlar xotirasini yodga oldik.

Kombinatimizning ijroiya apparatida turli lavozimlarda uzoq yillar ishlagan Yunusboy Yusupov, Olimjon Qurbonov, matbuot xizmatining ijtimoiy tarmoqlar bo'yicha muharriri Sherzod Shukuraliyevni chuqur qayg'u bilan eslaymiz. Yaqinginada oramizda bo'lgan bu insonlar endilikda safimizda yo'q. Bu insonlar "Metallurg minbari" gazetasi jamoatchilari ham edilar. Ularning ijodiga mansub ko'plab turli mavzulardagi maqolalar



ko'pchilikka manzur edi. Shuningdek, ularning bevosita yordamlari, maslahatlari asosida ham o'qimishli maqolalar tayyorlaganmiz.

O'zbekiston metallurgiya zavodiда ko'p yillar bosh direktor bo'lgan Rixsivoy Yusupov zo'r metallurg bo'lish bilan birga gazetamizga ko'plab maqolalar yozgan edi. Hattoki yaxshigina she'rlar ham bitardi. U kishi bilan hamkor-



likda "O'zmetkombinat"ning ikkinchi yuksalish davri haqida gazetamizga turkum maqolalar tayyorlanib, kombinatning bu davrdagi hayotining tarixda qolishida muhim manbaa bo'lib qoldi.

Ustoz jurnalist Tursunali Usmonov "Metallurg minbari" gazetasining tashkilotchisi va birinchi muharriri bo'lgan. T. Usmonovning har bir maqolasini o'qir ekansiz, uning o'tkir nigohidan har qanday voqealar chetda qolmaganligini bilib olasiz. Tursunali aka tajribali ijodkor, qolaversa qalamni o'tkir jurnalist ekanligini yana bir bora yodga olamiz.

EPES kran boshqaruvchisi, shoir va jamoatchi muxbir Orifjon Nomozov gazetamizda maqola va she'rlari bilan metallurglar e'tiborini qozonganlardan biri edi.




Afsuski u ham Sherzod Shukuraliyev kabi yosh vafot etdi.

Ustoz jurnalist Tursunali Usmonov, (suratlarda) yaqin hamkorlarimiz Yunusboy Yusupov, Rixsivoy Yusupov, Olimjon Qurbonov, metallurg va shoer Orifjon Nomozov, hamkasbimiz Sherzod Shukraliyevlarning porloq xotirasi doimo biz bilan birga bo'ladi. Ilohim, oxiroti obod bo'lsin ularning!

Albatta, hayotiy dunyoda yashab, xalqning xizmatida kamarbasta bo'lib, foni yunyodan rihlat qilganlarni eslash barchamizga lozim vazifa hisoblanadi. Zero, o'tganlarни eslash va ularga istig'for aytish, qabrlarini ziyyarat qilish va ularning haqlariga duolar qilish ham-mamizning insoniy burchimizdir.

Ismadiyor MAMATQULOV.




O'ZBEK ASKARLARI QAHRAMONLIGI

Remko Reyding – niderlandiyalik tadqiqotchi jurnalist, bundan 25 yil yil oldin Gollandiyaning Amersfort shahri yonidagi o'rmonda 2-jahon urushidan qolgan harbiy asirlar qabristoni borligi haqida xabar topadi. Yosh tadqiqotchi bu qabristonni o'rganishni boshlaydi. Keyinchalik uning izlanish va o'rganishlari natijasida bu qabristonda Amersfort konslageri mahbuslari, aynan 101 nafar "Noma'lum askar" toshi ostida 101 nafar o'zbek mahbus askarlari dafn etilgani aniqlandi. Shunday qilib, butun dunyo 1941-yilda Smolensk ostonasida asir tushgan Gollandiyaga maxsus pavezda olib kelingan 101 nafar o'zbek askari qahramonligi haqida xabardor bo'ladi.

Ularni natsistlarning g'oyaviy rahnamosi – Gebbelsning shaxsiy topshirig'iga binoan, nemis askarlari "yovvoyi xalqlar" bilan qanday kurashayotgani haqidagi targ'ibot filmini suratga olish uchun tayyorlashadi. Gitlerning Sovet Ittifoqini yashin tezligida bosib olishga qaratilgan rejasи barbob bo'lgach, ushbu film nemis askarlarining tushkun ruhini ko'tarishi, raqiblarning "qanchalik nochor va insoniylikdan yiroq" ekanini ko'rsatishi lozim edi. Ammo bu reja amalgalosmagan.

Konslagerning chor atrofi tikonli simlar bilan o'ralgan ochiq osmon ostida kuzning yomg'irli va sovuq kunlarida yurtoshlarimizga necha kunlab ovqat berilmay, g'ayriinsoniy sharoitlar-



da saqlangan. Ular kunduzi tog'da tosh maydalanish va tashishga majburlanib, kechasi uylashga imkon berilmasdan, shafqatsiz kaltaklangan, tinimsiz xo'rangan. Kunlardan bir kuni lagerga nemis generallari boshchiligidagi fashist amadorlari, shuningdek, kino operatorlari va rejisyordalar iborat katta bir ijodiy guruh keladi.

Shu munosabat bilan ozoda va sarishta liboslardagi ko'rkmak ko'rinishli fashist ofitserlari ezilgan va azoblardan bukchayib qolgan juldur kiyimlardagi o'zbeklar qarshisida saf tortadi. Chiroqlar yonadi, kino kameralari ishga tushadi. Moshinada yangi yopilgan, hidi yoqimli ufurib turgan issiq nonlar olib kelinadi. Nemis ofitseri o'ziga novvoy uzatgan bulkani olib, devordan ichkariga, o'zbek asirlari tomonga uloqtiradi.

Fashistlarning fikricha, "inson qatorida ko'rilmaydigan", lagerdagi "sharoitlar" tufayli esa odamiylik qiyofasini ham yo'qtayozgan och-nahor va xastahol asirlar o'zaro non talash-

ib, kinobop tomosha ko'rsatishlari kerak edi. Bu, o'z navbatida, Gitlerning nemislar – oliy irq, boshqa millatlarda esa insoniylikka xos zig'ircha ham xislat yo'q, degan manfur g'oyasini tasdiqlab berardi. Ammo, bunday bo'lmaydi.

Atrofga jimjilik cho'kadi. Bir muddatdan keyin asirlardan biri yerda yotgan nonni qo'liga olib, uch marta o'padi va ko'ziga surtdi. So'ng nonni o'zbeklarning yoshi ulug'iga olib boradi. U nonni bo'laklab, barchaga birdeq taqsimlab mahbuslarga uzatadi.

Yoshi katta askar oxirgi bo'lakni o'ziga oladi. O'zbek asirlari shoshmasdan, odob bilan nonni yeyishadi. Oxirida Xudoning ne'mati uchun shukronalik fotihasi o'qiladi.

Bu ssenariy fashistlar taxmin qilgandek yakun topmaydi. Oqibatda yurtdoshlarimiz jazolanadi. Ularning 24 nafari qishda ochlik va sovuqdan, kasallikdan vafot etadi. Tirik qolganlarning hammasi o'rmonga olib borilib, otib tashlanadi.

Biz tinch va osoyishta zamonda yashayapmiz. Bunga o'z hissasini qo'shgan shunday qahramonlar jasorati hamda matonati, metin irodalari oldida bosh egamiz. El-yurtimizning erki va ozodligi, baxtu saodati uchun hayotini qurban qilgan vatandoshlarimiz xotirasi hamisha barhayotdir.

QUTLUG' YOSHING MUBORAK, ONA SHAHRIM!

ASOSIY KARVON YO'LLARI O'TGAN

Bekobod qadim zamonlardan boshlab ajdodlarimiz yashab kelgan muqaddas zamindir. Tarixdan ma'lumki, Sirdaryo bo'yida insonlar melodan avvalgi mezolit davrida ham yashagan.

Bu go'sha eramizning XV-XVI asrlarida ancha taraqqiy topgan qo'rg'on, shahar sifatida mavjud bo'lganligini ko'rsatuvchi faktlar ham borki, bu dalilni Zahiriddin Muhammad Boburning butun dunyoga mashhur ensiklopedik asari "Boburnoma" sahifalarida ham uchratishimiz mumkin. "Boburnoma" asarining 88-sahifasida "Tonglasi Xo'jand suyini Xoslar to'g'risidin muz ustidin o'ttuk. Suvdin o'tub tunqotib, Piskentga kelduk" jumalari borki, bu fikr XV-XVI asrlarda Bekobod va unga yaqin joylarda qaynoq hayot mavjud bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi.

Tarixiy dalillar shuni ko'rsatadi, qadimda Farg'ona vodiysi shahar va qishloqlarini Toshkent vohasi bilan, boshqacha qilib aytganda, sharjni g'arb bilan, shimal bilan bog'laydigan asosiy karvon yo'llari mana shu Bekobod shahri hududidan o'tgan. Bu yo'llar yoqasiga qurilgan manzillarda baland tepalik qurilib, uning yuqori qismiga kechalari mash'alalar yoqib qo'yilgan. Bu mash'alalar karvon uchun mayak vazifasini bajargan. Qizig'i shundaki, bunday tepaliklarni bundan 30-35 yil muqaddam Bekoboddan Toshkentga samolyot bilan borgan odam bemalol kuzatishi va ular orasidagi masofaning deyarli teng ekanligini sezishi mumkin edi. Afsuski, keyingi yillardagi siyosat, sug'oriladigan yerlarni kengaytirish borasidagi ishlar ana shu noyob tepaliklarni - tariximizning tilisiz guvohlarini surib tashlanishiga va paxta ekiladigan ekin-zorlarga aylantirilishiga olib keldi.

BEKLAR OBOD QILGAN JOY

Bekobod so'zining ma'nosi beklar obod qilgan joy demakdir. Xalq orasidagi gaplarga qaraganda O'ratega hokimi bu qishloqqa suv chiqarish uchun 40 ta bekni shu taraflarga yuborgan. Beklar boshchiligidan shu yerda yashayotgan odamlarning hammasi bir bo'lib hozirgi "Buloqariq" deb nomlangan ariqni qazishibdi va suv keltirishibdi. Suv kelishi bilan dehqonchilik rivojlana boribdi va qishloq Bekobod nomini olibdi. Bekobod qishlog'i bunday nomlanishining asosiy sababi qishloqqa obihayot olib kelgan Buloqariq bilan bog'liqidir. O'sha davrdagi Bekobod qishlog'i "Buloqariq"ning ikki tarafiga joylashgan edi.

SHAHAR VUJUDGA KELISHINING BOSHLANG'ICH NUQTASI

Tarixdan ma'lumki, Rossiya 1865-yilda O'rta Osiyoni to'la bosib oldi va o'zining mustamlaka-siga aylantirdi. Bu o'lkadagi boyliklarni tezroq qo'lga kiritishning, Rossiyaga eltishning birdan-bir yo'li Rossiyani O'rta Osiyo shaharlari bilan tutashtiruvchi temir yo'l qurish edi. Shuning uchun Rossiya hukumati 1890-yildayoq Kaspiy dengizi bo'yidagi ruslar qurban Krasnovodsk shahridan Turkiston o'lkasi shaharlari temir yo'l tortib kelish ishlarini boshlab yubordilar va 1899-yilda temir yo'l oldin Samarqand, so'ngra Farg'onaga tortib kelindi.



Hozirgi Bekobod shahri hududiga temir yo'l kirib kelishi va bu yerda Xilkovo stansiyasining qurilishi Bekobod shahri vujudga kelishida boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi desak, unchalik xato bo'lmaydi.

Chor hukumati ma'murlari kanallar qazish cho'l va yarimcho'l yerlarni bu o'rinda, xususan, Dalvarzin cho'lining va Mirzacho'lning unumdon yerlariga kanallar qazib, suv olib borish uchun ish boshlandi. Tekin, arzon ish kuchini yollash, boshqacha qilib aytganda, mahalliy aholini yollash yo'li bilan ishlatish hisobiga 1914-yilda "Knyaz ariq" deb nom olgan (o'sha vaqtida kanal qurilishiga rahbarlik qilgan knyaz Konstantin Konstantinovich nomini olgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas) kanal hamda "Xos yoz" deb nom olgan kanallar vujudga keldiki, bu kanallar suvi yetib borgan joylarda yangi-yangi rus qishloqlari vujudga kelib, bu qishloqlarda yashayotgan, Rossiyadan ko'chib kelganlar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullandilar.

O'sha davrda Mirzacho'l vohasida vujudga kelgan bunday qishloqlarga misol sifatida Konnogvardeyskiy, Alekseevskiy, Verxno-Volinskiy, Nijne-Volinskylarni, Dalvarzin cho'l vohasida vujudga kelgan Stretinskiy, Kolpakova kabi posyolkalarni ko'rsatish mumkin.

Kichik korxonalar qurib, o'lkadan tayyor mahsulot olib ketish maqsadida chor ma'murlari tabiiy resurslar mayjudligini hisobga olib, qura boshlagan Bekobod qishlog'i yonidagi sement tayyorlovchi zavodni 1914-yilda ishga tushirishga muvaffaq bo'lishdi. Kichik sanoat korxonalari va rus tilida so'zlashuvchi posyolkalarning vujudga kelishi bu joylarga ko'plab rus va rusiy zabon aholining ko'chib kelishiga imkon tug'dirdi.

BEKOBOD QISHLOG'I TUMAN MARKAZI BO'LDI

1926-yilda Bekobod qishlog'i markazi bo'lgan tuman tuzildi va o'z-o'zidan tuman Bekobod nomini oldi: Bekobod tumanining markazi bo'lgan Bekobod qishlog'i tuman tuzilmalari, ya'ni umumiy ovqatlanish, sotsial, kommunal xo'jalik, madaniy-maishiy xizmat, maorif, pochta, aloqa xizmatlarining vujudga kelishi bilan tezda rivojlanish sari yo'l tutdi. Aholi soni tezlik bilan o'sa bordi va urushgacha bo'lgan davrda 8000-9000 kishi atrofida aholi yashovchi, sanoati mavjud shahar tusini olgan yirik posyolkaga aylangan edi.

1926-yil 26-iyun kuni O'rta Osiyo va O'zbekistondagi to'ng'ich korxonalardan biri - Xilkovo cement zavodi ishga tushganligi, birinchi mahsulot chiqarilganligi haqida xabar tarqaldi. O'sha vaqtarda zavod ombori yonida

quvvati soatiga 1000 kilovatt bo'lgan 1908-yilda chiqarilgan bug' turbinasi bilan ishlaydigan elektrostansiya ham qurilgan edi.

"FARHOD VA SHIRIN"

Ikkinci jahon urushi boshlanganidan keyin fashistlar Germaniyasi vaqtincha bosib olgan viloyatlardan O'zbekistonga ko'pgina korxonalar ko'chirib keltirildi. Ularni tezda ishga tushirish uchun katta elektr quvvati talab qilinardi. Shuning uchun ham O'zbekistonda gidro-elektrostansiyanlar qurish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu qurilishlar jumlasiga kirgan Farhod GESini qurish 1943-yilda boshlab yuborildi.

Bekobod qishlog'i yaqinida qurilayotgan gidroelektrostansiya afsonaviy Farhod nomining berilishiga sabab, soyning nomi Shirinsoy deb atalishi bo'lsa, ikkinchidan Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhod obrazi talqinidagi jasorat va xalqqa suv chiqarib berish maqsadida amalga oshirilgan fidokorona va qahramonlarcha mehnat namunasi asos bo'lgan bo'lishi mumkin. Chunki Farhod GESi qurilishida O'zbekistonning turli viloyatlaridan safarbar qilingan 70 ming kishilik quruvchilar armiyasining har bir ishtirokchisi Sirdaryoning yangi o'zanini kavlashda haqiqatan ham Farhodlar singari chinakamiga qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar.

BEKOBOD SHAHARGA AYLANDI

Urush davrida yirik sanoat korxonasi bo'lmish O'zbekiston metallurgiya zavodida 1944-yil 5-mart kuni birinchi o'zbek po'lati tayyorlandi. Zavod ishga tushirilgandan keyin, Bekobod posyolkasini shahar, deb nomlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yetilgan edi va shuning uchun ham Respublika hukumati 1945-yil 7-may kuni Bekobodni viloyatga bo'y sunuvchi shahar, deb e'lon qildi.

Dastlabki yillarda 7 mingga yaqin kishi yashagan. Aholiga 1 ta ambulatoriya va 1 shifoxonada 5 nafar feldsher xizmat ko'rsatgan. 8 ta maktabda 3 mingga yaqin o'quvchi o'qigan. Metallurgiya va sement zavodlari, Farhod GESi va ularga xizmat ko'rsatuvchi avtokorxonalar ishlagan.

Yillar o'tishi bilan Bekobod O'zbekistonning eng yirik shaharlardan biriga aylanib bordi. "O'zmetkombinat" AJ, "Bekobodsement" AJ shaharning eng yirik sanoat korxonalari hisoblanadi. Shuningdek, shaharda boshqa sanoat korxonalari, turli tashkilotlar, yuzlab tadbirkorlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Matluba XOJIMURODOVA
tayyorladi.

FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA QILISH VA FUQARO MUHOFAZASI OYLIGIDA

BILIM VA KO'NIKMALAR MUSTAHKAMLANDI

Joriy yilning 15-martidan 15-apreligacha "O'zmetkombinat" AJda "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi oyligi" o'tkazildi. Oylik davomida kombinat tamonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasiga asosan ishlar tashkil etildi.

Tarkibiy bo'linmalarda Favqulodda vaziyatlarning oldini olish maqsadida yong'in xavfsizligi choralarini yanada kuchaytirildi. Jumladan bo'linma va uchastkalarda favqulodda chiqish eshiklari, binolardan evakuatsiya qilish sxemalari va favqulodda holatda yig'ilish joylari, fuqaro muhofazasi himoya inshootlari, birlamchi o't o'chirish vositalari, yong'in-himoya xabarlovchilari va yong'inni avtomatik o'chirish tizimlarining ishchi holati tekshirishdan o'tkazildi. Yong'inga qarshi suv ta'minoti (gidrant, sig'im, suv havzalari, ichki yong'in kranlari) soz holatga keltirildi.

Shuningdek, bino va inshootlar va unga tutash hududlar yonishga moil bo'lgan begona o'tlar, qurigan o'simliklar va chiqindilardan tozalandi.

"O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan kombinat markaziy laboratoriysi, Mexanika-ta'mirlash va Xalq iste-



moli mollari ishlab chiqarish bo'linmalarida hamda Quyuv-prokatlash majmuasida ishchi-xodimlar bilan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligi qoidalariiga rioga qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi.

Unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha maxsus yong'in o'chirish avtomobillari va birlamchi yong'in



o'chirish vositalari ko'rgazmali namoyish etildi.

Ushbu tadbirda, ishchi-xodimlarning fuqaro muhofazasi yo'naliishi bo'yicha bilim va ko'nikmalari mustahkamlandi.

Diyor NOMOZOV,

"O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarini yong'indan muhofaza qiluvchi Yong'in xavfsizligi bo'limi katta inspektori, katta leytenant.

Javlon UMIRZOQOV, inspektor, serjant.

2025-YIL - "ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI"

TABIATNI ASRASH HAR BIRIMIZNING BURCHIMIZ

Ekologiya, atrof-muhitni asrash va oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi, suv bilan bog'liq muammolarning oldini olish bugungi kunning dolzarb masalalaridir. Dunyoda yuz berayotgan muammolar dunyo hamjamiyati oldiga yangidan-yangi vazifalarini qo'yemoqda. Jahon yalpi ichki mahsuloti, aholi sonining o'sishi, insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta'siri va global energiya resurslarining cheklanayotgani ekologik muammolarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Bu ekologik muammolarni hal qilishga har birimiz ozmi, ko'pmi o'z hissamizni qo'sha olamiz. Oddiy misol. Ko'chalarni, uyimizni obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, chiqindilarni belgilangan joyga tartib bilan tashlash, suvni tejash orqali ham biz tabiatni asrashda, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda foydali ish qilgan bo'lamiz. Bu bilan biz farzandlarimiz, nabiralarimiz, kelajak avlod uchun xayrli ishni amalga oshiramiz.

Bu borada shahrimizning Shirin va Bobur mahallalarida ma'lum ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu mahallalarda ham muammoli, yillar davomida to'plangan chiqindilar ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'layotgan edi. Bu muammolarni hal qilish uchun chiqindilarni tozalash bo'yicha obodonlashtirish idorasiga, shirkatga va chiqindilarni to'plab, olib ketuvchi MCHJga Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi deputati sifatida so'rovnomaga jo'natdim. Navro'z bayrami oldidan ular ko'p yillik to'plan-

gan chiqindilarni tozalab mahallalarning bu muammosini hal qilib berishdi.

Hozir aholi tomonidan tashlanadigan chiqindilar uchun ko'p joylarga maxsus idishlar qo'yildi. Biroq ularning samadarligi aholining ekologik madaniyatiga bog'liq. Afsuski, ba'zi joylarda bu idishlardan noto'g'ri foydalanan, chiqindilarning ajratilmasdan tashlanishi kuzatilmogda.

Maishiy chiqindilar ichida ovqat qoldiqlari ko'p. Hatto nonlar bor. Bolalarning pamperslari bilan ovqat va nonlar qo'shilib ketmoqda. Bundan holat xalqimiz qadriyatlariga aslo to'g'ri kelmaydi. Avalambor oziq-ovqatlarni uvol qilmaslik, isrofgarchilik qilmaslik kerak. Biroq uvoldan qo'rqligida qoldiqlari isrofgarchilik qilish-

moqda. Shuning uchun chiqindilar tashlanadigan plastik, qog'oz va boshqa chiqindi idishlari bilan birga ovqat qoldiqlariga alohida chiqindi idishi qo'yilishi fursati allaqachon kelgan deb o'yayman. Shunda bu idishlarda to'plangan oziq-ovqat qoldiqlari qo'y va mol boqadigan-

lar uchun tayyor ozuqa bo'ladi. Faqat ularning sanitariya holatini yaxshilash kerak. Aks holda ovqat qoldiqlari ichiga yomon narsalar tushib qo'y va mollarni kasal qilib qo'yishi mumkin.

Buni o'zim yashaydigan ko'p qavatli uydan boshlamoqchiman. Bu eksperiment yaxshi chiqsa boshqa joylarda ham bu uslubni qo'llasa bo'ladi.

Shahar mahallalarida tozalikni saqlash uchun nafaqat maxsus idishlar, balki aholining ekologik ongini oshirish ham muhim. Chiqindilarni saralash va qayta ishslash madaniyatini shakllantirish, muntazam tozalash ishlari va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali ko'chalar yanada ozoda va obod bo'lishi mumkin.

Shuning uchun ham aholining ekologik madaniyatini oshirishga, isrofgarchilik va uvolning oldini olish uchun saylovchilarim o'rtasida targ'ibot ishlarni olib borayapmiz.

Qadrli hamshaharlar va metallurglar!

Tabiatni asrash har birimizning burchimiz ekanini unutmaylik!

Marhabo XALIKOVA,

"O'zmetkombinat" AJning Ovqatlanish kombinati direktori, Xalq deputatlari Bekobod shahar Kengashi deputati.



MANFAATLAR TO'QNASHUVI

DAVLAT VA JAMIYATGA KATTA ZARAR KELTIRADI

Davlat va jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri – manfaatlar to'qnashuvidir. U bor joyda sohalar rivojlanish o'rniqa, orqaga ketadi, adolatsizlik bo'ladi, o'zaro ishonch so'nadi, mutaxassislar salohiyati ro'yobga chiqmaydi. Manfaatlar to'qnashuvi murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, umume'tirof etilgan xalqaro hujjatlarda, xorijiy va milliy qonunchilikka asosan davlat boshqaruvi va korporativ faoliyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tufayli uchraydi.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsning shaxsiy manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rta-sida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat. Manfaatlar to'qnashuvi asosan urug'-aymoqchilik, mahalliychilik, tanish-bilishchilik, shafelik, do'st-lar yoki ishonchli shaxslarga noqonuniy imtiyozlar taqdim etish va tashkilot xodimi boshqa shaxs yoki guruhi manfaatlariga ustuvor ahamiyat qaratishi kabi ko'rinishlarda uchraydi. Manfaatlar to'qnashuvining ijtimoiy xavfliligi, uning ayrim ko'rinishlarining asosida fuqarolarning huquqlariga yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lishidadir. Bu o'z navbatida korrupsiyaga oid jinoyatlar, masalan, hokimiyatni yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilishi yoki xizmat doirasidan chetga chiqish, hokimiyat harakatsizligi, mansab soxtakorligi uchun javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. O'z vaqtida bunga qarshi keskin kurashilsa, ya'ni manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilsa, korrupsiya barham topadi, ish faoliyatida o'zgarish, rivojlanish bo'ladi.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 5-iyun kuni imzolangan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning aniq tartibi belgilandi. Eng muhimi, mazkur hujjat bilan manfaatlar to'qnashuvi o'z vaqtida aniqlash va bunday vaziyatning oldini olishga qaratilgan xabarnoma

va deklaratsiya berish mexanizmlari mustahkamlab qo'yildi.

Birinchidan, xodim bevosita rahbariga, rahbarlar esa korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarga yoki kadrlar bo'linmalariga xabar berib, ushbu manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralarini ko'radi. Ya'ni, bunda xodim o'zi uchrab turgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini tartibga soladi.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalar yoki kadrlar bo'linmalar manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi. Bunda xodimda kela-jakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlanadi.

Buning uchun muntazam ravishda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklarat-siyalar, davlat xaridi takliflari, komissiya bayon-nomalar, shartnomalar, tijorat tashkilotlarining affillangan shaxslari ro'yxatlari, jismoniy va yuri-dik shaxslar murojaatlari hamda yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish moduli, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi manbalari o'rganiladi. Shundan so'ng, aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi vaziyatidan kelib chiqib, ularni tar-



tibga solish choralar ko'riladi.

Aytish joizki, hujjat bilan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish bo'yicha cheklolvar ham belgilandi. Xususan, Qonunda biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashi manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'lishini inobatga olgan holda, bunday tartibda ishlash taqiqlandi.

Yana bir muhim masala. Agar davlat xizmat-chisi tomonidan o'zi nazorat qiladigan obyektlarda yaqin qarindoshi ishlaydigan bo'lsa, ushbu holatning oldini olish uchun xodim bu haqida manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasida ko'rsatishi va yaqin qarindoshiga taalluqli masalalar bo'yicha nazoratni amalga oshirmaslik choralarini ko'rishi lozim.

Mazkur holatlar to'g'risida xabar berilmagan yoki tartibga solinmagan taqdirda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga asosan manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bermaganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 3-5 baravarigacha jarima belgilandi. Ushbu xabarlar tartibga solinmagan taqdirda mansabdor shaxsga bazaviy hisoblash miqdorining 5-10 baravarigacha jarima qo'llanishiga sabab bo'ladi. Umuman olganda, mazkur Qonun davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat muassasalari, davlat unitar korxonalari, davlat maqsadli jamg'armalari, shuningdek ustav fondida davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish, uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash hamda mamlakatimizning korrupsiyaga oid xalqaro reytingdagi ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

To'lqin XOJIYEV,
"O'zmetkombinat" Ajning
Kuzatuv kengashi huzuridagi
Komplaens xizmati boshlig'i.

JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISH

SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish - pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk jinoiy faoliyat natijasida topilgan bo'lsa, ularni o'tkazish, mulkka aylantirish yoxud almashtirish yo'li bilan ularning kelib chiqishiga qonuniy tus berishdan, xuddi shuningdek bunday pul mablag'larining yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki ularning kimga qarashlilagini yashirishdan yoxud sir saqlashdan iborat bo'lgan, jinoiy jazolanadigan ijtimoiy xavfli qilmish hisoblana-di. Jinoiyatning obyekti respublika iqtisodiy faoliyatining manfaatları, jamoat xavfsizligi hisoblanadi.

Obyektiv tomonidan esa jinoiy yuqorida ko'rsatilganidek, noqon-uniy topilgan daromadlar o'tkazish, aylantirish, almashtirish va boshqa usullar orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish iqtisodiyotning turli tarmoqlari ga ta'sir ko'rsatadigan murakkab jarayon bo'lib, unga qarshi kurash choralariga, jumladan, ushbu salbiy hodisaning oldini olishga qo'yildigan talablarni sezilarli darajada oshiradi. O'z navbatida, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni huquqiy ta'minlash moliyaviy, bank, bojxona munosa-batlarini tartibga soluvchi, jinoiy

faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish maqsadida kompaniyalarni litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgilovchi qonunlar va qonunosti hujjatlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Ko'pgina mamlakatlarda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha huquqiy chora-tadbirlar uchun o'ziga xos asos bo'lib xizmat qiluvchi "namunali" qonunlar mavjud. Jumladan, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish sohasi hozirgi paytda 2004-yil 26-avgust-dagi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga

terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-sentabrda Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legal-lashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha idoralararo komissiyani tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3947-sonli qarori hamda boshqa ushbu sohagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Zero, ushbu masalada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh (Financial Action Task Force on Money Laundering - FATF) 2020-yilda O'zbekistonga tashrif buyurishi va baholashi ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu o'zgarihlardan so'ng Prezidentimiz tomonidan 2021-yil 28-iyunda qabul qilingan PF-6252-son farmoniga ko'ra, yurtimizda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtiri-

rishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish milliy tizimini ri-voljantirish strategiyasi tasdiqlandi. Unga muvofiq, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida ishtirok etuvchi vazirlik va idoralar ro'yxati belgilandi, har uch yilda bir marta milliy darajada jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legal-lashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni baholash tartibi joriy qilindi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoiyatlarga qarshi kurashish departamentining axborotni to'plash va unga ishlov berish bo'limi negizida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lмаган Xavflarni baholash markazi tashkil qilinib, uning asosiy vazifalari belgilab qo'yildi.

Artyom SHOMESOV,
Korporativ xavfsizlik va
resurslarni himoya qilish
departamenti direktori.

“GURUCH KURMAKSIZ BO‘LMAYDI”

Kombinatda o‘z vazifasini sidqididan bajarib, halol mehnat qilayotganlar ko‘p. Biroq “Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi” deganlaridek o‘z nomiga dog‘ tushirayotganlar ham uchrab turganligi achinarlidir. Udaylar harom yoki halolga e’tibor ham qilmay noqonuniy bo‘lsada daromad topishga intilib, kombinat mulkiga ham ko‘z olaytirishadi. Yaqinda, joriy yilning 21-yanvar kuni kombinatimizda ana shunday achinarli holat sodir bo‘ldi.

Shu kuni G‘ani Jasurov rangli metallarni yashirinchalik kombinat hududidan tashqariga olib chiqmoqchi bo‘ladi. Bu mahsulotlarni olib chiqishning turli yo‘llarini o‘ylab ko‘radi. Biroq uni istagancha bema-lol olib chiqishning yaxshi yo‘lini topa olmaydi. Oxiri tavakkal qilib mis kabelini qorovullarga bildirmay

kiyimlarining ichida olib chiqishga qaror qiladi.

U soat 01.30 larda “O‘zmetkombinat” Ajga qarashli 4-son nazorat o‘tish joyidan chiqayotgan vaqtida harbiy qism xodimlari tomonidan tekshiriladi. Shunda uning kiyimlarining ichida, qorin qismiga o‘rab olin-gan umumiyy qiymati 294 000 so‘m bo‘lgan yetti kilogramm mis kabellarini yashirinchalik olib chiqmoqchi bo‘lganligi aniqlandi.

Natijada oson daromad olish o‘rniga sud kursisida o‘tirishiga to‘g‘ri keldi. Sud majlisida huquqbazar tariqasida so‘roq qilingan G‘ani Jasurov o‘z aybiga iqrar bo‘ldi. U qilgan ishidan chin ko‘ngildan pushaymondaligi, bu holatdan o‘ziga tegishli xulosa chiqarib olganligini bildirdi. Boshqa bu holat takrorlanmasligiga va’da berib, suddan

yengillik berishni so‘radi.

Sud, huquqbuzarga nisbatan jazo qo‘llashda uning shaxsini, yoshini, oilaviy sharoitini va moddiy ahvolini, aybiga iqrorligini, sodir etilgan huquqbazarlikning ijtimoiy xavflik xususiyati va darajasini, yetkazilgan moddiy zarar to‘liq qoplanganligini inobatga oldi. Unga nisbatan qonun sanksiyasida nazarda tutilgan jarima jazosi qo‘llanildi.



Sud qarori bilan huquqbazar O‘zbekiston Respublikasi MjtKning 61-moddasi 1-qismi bilan aybli, deb topildi va unga bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida - 750 000 so‘m jarima jazosi qo‘llanildi.

**Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha
Bekobod shahar sudi sud‘yasi.**

YIL SAYIN DOLZARB MUAMMOGA AYLANMOQDA

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatmoqdaki, 2030-yillarga kelib olib barcha chuchuk suv resurslari inson faoliyati uchun egallab bo‘linadi, ya’ni suv ham investitsiya manbaiga aylanib sotila boshlaydi. Dunyo miqyosida so‘nggi 100 yilda suv sarflanishi olti barobar oshgan. Bu ketishda 2050-yilga kelib odamzotga hozirgiga nisbatan ikki karra ko‘proq suv zarur bo‘ladi. Suv esa kamaygandan kamayib boraveradi.

Yer sharining 70 foizdan ko‘prog‘i suv bilan qoplangan bo‘lsa-da, chuchuk suvning miqdori bor- yo‘g‘i 3,5 foizni tashkil etadi. Ushbu chuchuk suvning ham atigi 1 foizi ichishga yaroqli hisoblanadi. Demak, bundan ko‘rinib turibdiki, ichimlik suv tabiatning tunganmas resursi emas.

VAZIYAT YANADA KESKIN TUS OLMOQDA

Bugunga kelib suv resurslarining kamayishi va tanqisligi butun dunyoda kuzatilayotgan global muammodir. Bu muammo Markaziy Osiyoda ham katta xavfga aylanmoqda.

Jumladan O‘zbekistonda ham suv taqchilligi yil sayin dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Yerosti suvlari kamayishi, iqlim o‘zgarishi va qo‘shni Afg‘onistonda Qo‘shtepa kanali qurilishi tufayli vaziyat yanada keskin tus olmoqda.

O‘zbekistonda aholi sonining o‘sishi, milliy iqtisodiyot turli tarmoqlarining jadal rivojlanishi va ularning suvga bo‘lgan talabining o‘sishi ham respublikada suv resurslarining yildan-yilga taq-chil bo‘lib borayotganligiga sabab bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda qor kam yog‘ishi kuzatilmoqda. Qor tog‘da muzliklarni hosil qiladi. Global iqlim o‘zgarishi natijasida so‘nggi 50-60 yil davomida Markaziy Osiyoda muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan.

Agar biz suvni tejab ishlashni o‘rganmasak, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) prognозига ko‘ra 2040-yilga borib suv taqchilligi sabab dunyoda 700 million odam yashash joyidan ko‘chirilishi, ular qatorida O‘zbekiston fuqarolari ham bo‘lishi mumkin.



BEHUDA, MAQSADSIZ ISROF QILMAYLIK!

Bundan tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va maqsadli ishlatishni o‘rganishimiz zarur. Lekin bu yo‘nalishda o‘z yechimini kutayotgan asosiy masala – suvdan foydalanishdagi isrofgar-chilikdir. Kundalik hayotimizda suvni behuda, maqsadsiz isrof qilish holatlariga chek qo‘ymas ekanmiz, bu borada biror natijaga erishishimiz amri mahol.

Bugungi kunda dunyo aholisining 29 foizi toza ichimlik suvi yetishmasligidan azyat chekayotganini, har kuni mingga yaqin bolalar toza ichimlik suvi iste’mol qilmaslik va yomon sanitarni-gigienik sharoitlarda yashash natijasida vafot etayotganini ko‘z oldimizga keltirsak, oldimizda turgan muammoning ko‘lamini yanada teranroq anglaymiz.



Suv havzalariga yetkazilgan salbiy ta’sir natijasida butun ekologik tizim izdan chiqishini Orol dengizi fojiasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

SAVOBI ULKAN, GUNOHI OG‘IR

Suvni tejab ishlashni o‘rganmas ekanmiz, bu ketishda yaqin kelajakda bundan ham xavotirli oqibatlarga duch kelishimiz turgan gap.

Bugungi kunda biz insonlarning bu bebahonematzga munosabatimiz qanday? Afsuski ayrim insonlar tomonidan suvni isrof qilish yetmaganidek, ba’zi johil kimsalar tomonidan suv havzalariga, ariq, kanal va suv shahobchalariga turli chiqindilar tashlanmoqda. Ularni ifloslan-tirish shu darajaga yetdiki, hatto ba’zi xonardonlar oqava – nujosat suvlarini hayotimiz manbai anhorlarga, kanallarga oqizmoqdalar. Bu ish na shariatga va na insoniy qoidalarga to‘g‘ri keladi.

Ota-bobolarimiz suvni isrof qilishdan nihoyatda ehtiyyot bo‘lishgan, hatto, suvga tupurishdan ham saqlanishgan. Chunki, ular bu ishning gunohi qanchalik og‘irligini, suvni tejash va birovga ularishning savobi juda ulkan ekanligini yaxshi bilishgan.

Bugun suv bilan bog‘liq ekologik muammolar barchamiz uchun ogohlilik qo‘ng‘irog‘i hisoblanadi. Bundan har birimiz tegishli xulosa chiqarib, suvni tejash va isrof qilmaslik tamoyilini kundalik mezonimizga aylantirishimiz zarur.

SUVNI TEJASHNING OSON YO‘LLARI

Tishingizni yuvyonGANINGIZDA yoki idish-tovoqni sovunlayotganingizda krandagi suvni o‘chirib turing. 2 daqiqa tish yuvish davomida kanalizatsiyaga 18 litr toza suv oqib ketadi.

Kran va quvurlarni oqyaptimi yoki yo‘qmi tek-shiring va sozlang. Ko‘p uylarda ovqat qilish yoki boshqa ehtiyojlarga sarflanadigan suvga qara-ganda quvurlardan suv oqishi hisobiga ko‘proq suv sarf bo‘ladi.

Hammomga kam sarfli dush moslamasini va kranlarga suv oqishini oldini oladigan qurilmalar o‘rnating. Oddiy dush moslamasidan 5 daqiqada 100 litr suv oqadi, vaholanki kam sarfli dush moslamasi 35 litr suv sarf qiladi.

Meva va sabzavotlarni oqar suvda emas, idishda yuvung. Ishlatilgan suv bilan xonaki o‘simliklarni sug‘orish mumkin.

Shaxsiy avtomobilni chelakka suv olib, yuvung. Shlangdan foydalanmang.

Ko‘chalar, mahallalarda oqib yotgan kranlarni yopib yurish, boshqalarni nazorat qilishni o‘rganing.

Avtomobildan kamroq foydalaning! Bilasizmi, 1 litr yonilg‘i ishlab chiqarish uchun 10 litr suv sarf bo‘ladi.

Ismat DIYOROV.

SALOMATLIKKA XAVF TUG'ILSA NIMA QILISH KERAK?

Ish jarayonida xodimning salomatligi yoki hayotiga xavf tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lganda nima qilish kerak?

E. Rustamov.


Ma'muriyat mehnatni muhofaza qilishning zamonaviy vositalarini joriy etishi va ishlab chiqarishda jarohatlanish hamda kasalliklarining oldini oladigan sanitariya-gigiena sharoitlarini ta'minlashi shart. O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni"ning 18-moddasiga asosan xodimning salomatligi yoki hayotiga



xavf tug'diruvchi vaziyat paydo bo'lganda, u bu haqda zudlik bilan ma'muriyatga xabar qilishi

kerak. Bu hol nazorat organlari tomonidan tasdiqlangan taqdirda ma'muriyat ishni to'xtatishi va xavfn ni bartaraf etish chorasi ko'rishi shart. Ma'muriyat tomonidan zarur choralar ko'rilmagan taqdirda, xodim ishni xavf bartaraf etilgunga qadar to'xtatib turishga haqlidir va unga hech qanday intizomiy jazo berilmaydi.

Ma'muriyat, agar mehnatni muhofaza qilish inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan, xodimning hayoti va salomatligi uchun to'g'ridan-to'g'ri jiddiy xavf hamon saqlanib turgan bo'lsa, undan ishni qayta boshlashni talab qilishga haqli emas va xodimga ish to'xtatib turilgan butun davr uchun barcha moddiy ziyonni to'lashi shart.



PENSIYALAR FUQAROLARNING MUROJAATISIZ TAYINLANADIMI?

Fuqarolardan pensiya tayinlash uchun qo'shimcha hujjatlar yig'ish uchun Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmasiga murojaat qilish talab etilmaydimi?

A. Aliyev.

Pensiya ta'minoti tizimiga axborot texnologiyalarini faol joriy qilish orqali fuqarolarga ko'rsatilayotgan xizmatlar bosqichma-bosqich interaktiv va proaktiv shaklga o'tkazilmoqda.

Xususan 2025-yil 1-martdan boshlab pensiya yoshiga yetgan fuqarolarga pensiyalar "avtomatik" tarzda, ya'ni hech qanday hujjat talab etmagan holda va fuqaroning murojaatisiz tayinlana boshlandi. Fuqaroning shaxsiga oid barcha ma'lumotlar vazirlik va idoralarning elektron bazalaridan olinadi.

Ushbu qulayliklarning yo'lga qo'yilishi natijasida fuqarolardan pensiya tayinlash uchun qo'shimcha hujjatlar yig'ish uchun Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmasiga murojaat qilish talab etilmaydi. Shuningdek, pensiya yoshiga yetgan fuqaroga qonunchilikda belgilangan talablar doirasida pensiya tayinlash haqida qaror qabul qilinganida uning telefon raqamiga "pensiya tayinlanganligi va uning miqdori" to'g'risida ma'lumot yuboriladi.

Pensiyaga chiqmasdan ish faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan yoki pensiya haqidan norozi bo'lgan fuqarolarga "avtomatik" tayinlangan pensiyani rad etish huquqi berildi. Fuqaro pensiya tayinlanganidan, pensiya miqdoridan yoki pensiya tayinlanishi rad etilganidan norozi bo'lgan taqdirda Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limiga tegishli tartibda ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

TA'TILNI ISTALGAN OYDA OLSA BO'LADIMI?

Xodim qaysi oyda ishga kirgan bo'lsa, har yili o'sha oyda ta'til oladimi? Yoki boshqa oyda ham berish mumkinmi?

K. Erkinova.

Mehnat kodeksining 225-moddasida ish yili degan tushuncha mavjud. Unga ko'ra, ish yili deganda xodimning muayyan ish beruvchida o'n ikki oyga teng bo'lgan va haqiqatda ish boshlangan sanadan e'tiboran hisoblab chiqariladigan ish davri tushuniladi. Mehnat kodeksining 230-moddasiga asosan har yilgi mehnat ta'tili har yili, ushbu ta'til berilayotgan ish yili tugaganiga qadar berilishi kerak. Masalan, xodim 2024-sentabr oyida ishga kirgan bo'lsa, u 2025-yil sentabrgacha ta'tilga chiqishi shart. Mehnat kodeksining 228-moddasining 7-qismiga asosan jadvalda belgilangan har yilgi mehnat ta'tilini berish vaqtini xodim va ish beruvchi o'rta-sidagi kelishuvga binoan o'zgartirilishi mumkin.



Ya'ni belgilangan jadval xodim va ish beruvchining kelishivi bilan bermalol o'zgartirilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xodim qaysi oyda ishga kirgan bo'lsa, o'sha oyda ta'tilga chiqsin degan qoida mavjud emas. Xodimni ishga kirgan yilning istalgan vaqtida ish beruvchi bilan kelishgan holda ta'tilga chiqarish mumkin.

SHTATI QISQARGANLARNING QANDAY HUQUQLARI BOR?

Ishxonada shtati qisqartirishga tushgan xodimlarning qanday imtiyoz yoki huquqlari bor?

S. Akramov.



Mehnat kodeksining 100-moddasiga asosan texnologiyaning, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning o'zgarishi sababli tashkilot xodimlarining soni yoki shtati o'zgarganligi, ishlari (mahsulot, xizmatlar) hajmining qisqarganligi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ikki oy oldin xodim yozma tarzida

ogohlantirilishi shart. Qisqartirishga tushgan xodimlarning ikki oy davomida o'rtacha oylik ish haqlari to'liq saqlanadi.

Kimni ishda qoldirish kerak degan tanlov paydo bo'lganda Mehnat kodeksining 167-moddasiga asosan malakasi va mehnat unumdarligi yuqoriq bo'lgan xodimlar olib qolinishi kerak.

Mehnat kodeksining 100-moddasining 4-qismiga ko'ra agar xodimlar mehnat shartnomasi bekor qilinganidan keyin 30 kalendar kun ichida mahalliy mehnat organida ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ular mahalliy mehnat organi tomonidan berilgan ma'lumotnomma bo'yicha uchinchi oy uchun ham avvalgi ish joyidan o'rtacha oylik ish haqini olish huquqiga ega bo'ladi.

Ham qisqartirish haqida ogohlantirish xati berib, ham xodimdan ariza olish mutlaqo noto'g'ri. Bunda ishdan bo'shatish asoslari o'zgarib ketadi.

Shuning uchun agar sizning shtatingiz qisqartirishga tushgan bo'lsa, ariza yozmang. Negaki bunda sizni o'z xohishingiz bilan ishdan bo'shatib yuborishlari mumkin. Bunda siz o'zingizga tegishli qator huquqlardan mosuvo bo'lasiz.

IMTIHONLARDA QANDAY ISHTIROK ETAMAN?

Bu yil universitetga o'qishga kirmoqchiman. Korxonadan javob berishmasa kirish imtihonlarda qanday ishtirok etaman?

I. Ne'matov.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining Oliy ta'limga tashkilotlariga o'qishga kirayotgan xodimlar uchun kafolatlar deb nomlangan

384-moddasida bu savolga javob berilgan. Unga asosan kirish imtihonlarida ishtirok etishga ruxsat berilgan xodimlarga oliy ta'limga tashkilotlariga kirish imtihonlarini topshirish uchun kamida o'n besh kalendar kun muddatga ish haqi saqlanmagan holda ta'til beriladi. Ta'limga tashkilotlari joylashgan yerga borish va qaytib kelish vaqtini hisobga kirmaydi.

TOSHKENT VILOYATIDA "DOLZARB 90 KUNLIK" TADBIRLARI O'TKAZILMOQDA

BEDAVO, JUDA YUQUMLI KASALLIK

Quturush barcha issiq qonli hayvonlarda va odamlarda uchraydigan bedavo, o'ta xavfli yuqumli kasallik hisoblanadi. U asab tiziminining og'ir jarohatlanishi bilan xarakterlanadi va oqibati o'lim bilan yakunlanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi manbai bo'lib, asosan yovvoyi hayvonlar hisoblanadi. It va mushuklar esa ko'pincha kasallikni tarqatuvchi manbalar hisoblanadi. Odamlarning 96 foizi itlar orqali kasallanadi.

AYANCHILI HOLAT YUZ BERDI

Toshkent viloyati bir necha yillar davomida Respublikada it tishlashlar ko'rsatkichi bo'yicha nosog'lom hududlardan biri bo'lib, odamlar o'rtasida quturush kasalligi muntazam ro'yxatga olinib kelinmoqda.

2024-yil davomida odamlar orasida bitta quturush kasalligi holati Chirchiq shahrida qayd etildi. Bemor Chirchiq shahar Tibbiyot birlashmasi qabul bo'limiga 6-dekabr kuni "Yuqori lab sohasining tishlangan jarohati" tashhisini bilan murojaat qilgan. Unga bu jarohanni o'zining bulldog zotli iti yetkazgan. Bemorga o'z vaqtida emlash ishlari olib borilshiga qaramasdan emlash davomida bemorda kasallik belgilari paydo bo'lgan va unda o'lim holati qayd etilgan. Surishtiruv davomida bemor uyidagi it o'z vaqtida veterinariya ko'rigan o'tkazilmagani va quturushga qarshi emlash ishlari olib borilmanligi aniqlandi.

Shu holat inobatga olingan holda Toshkent viloyati hokimining 2025-yil 15-martdagи "Hayvonlarda uchraydigan o'ta xavfli yuqumli kasalliklarning oldini olish bo'yicha "Dolzarb 90 kunlik" tadbirlari o'tkazish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi va ushbu ishga taalluq-



li tashkilotlarga yo'nalishi bo'yicha aniq ishlar belgilab berildi. Natijada shahrimiz Obodonlashtirish bo'limining "Qarovsiz holda qolgan hayvonlarni tutish brigada"si tomonidan qarovsiz va daydi itlarini tutish ishlari boshlandi. O'tgan oyda 98 ta itlar ushlanib Bekobod tuman qarovsiz holda qolgan hayvonlarni vaqtinchalik saqlash punktiga topshirildi.

Shahar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi xodimlari tomonidan shahardagi ahollida saqlanayotgan itlarini ro'yxatga

olish ishlari davom etmoqda. 256 ta itda quturushga qarshi emlash ishlari o'tkazildi.

Bekobod shahar Sanepidbo'limi tomonidan quturushga qarshi vaksina va immunoglobulin moddalari zahirasi yaratildi hamda shahar

iga rioya qilinib, uy hayvonlarini muntazam veterinariya ko'rigan o'tkazish lozim.

Agar odamni hayvon tishlasa yoki so'lagi teriga tegsa shu zahoti oqar suvda sovunlab yuvib tashlash, jarohat atrofiga, joyiga 70 foizli spirt, yod, brilliant yashili va boshqa dezinfeksiyalovchi vositalar surtish va tezlikda shifoxonaning jarrohlik yoki travmatalogiya bo'limiga murojaat etish kerak.

Hayvon tishlagan yoki uning so'lagi tekkan har bir kishi zudlik bilan mutaxassis shifokorga (xirurg, travmatolog (rabiolog) murojaat qilishi hamda zarur deb topsa, quturush kasalligiga qarshi emlanishi shart (emlash qancha erta boshlangsana kasallik tez bartaraf etiladi).

MUROJAAT QILING!

Hurmatli metallurglar!

Uy hayvonlarida kasallik aloatlari yuzaga kelganda Bekobod shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limiga murojaat qiling!

Mahalla va guzarlarda daydi it hamda mushuklar paydo bo'lsa Veterinariya xizmati va shahar Obodonlashtirish boshqarmasining "Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish brigadasiga" xabar berish lozim. (Shahar veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i N. Sariqulov – tel. raqami 99-306-64-34, epizootolog J. Jamoliddinov tel. raqami – 90-019-04-83, shahar Obodonlashtirish bo'limi it tutish brigadasi boshlig'i Ilhomov – tel. raqami 33-003-42-82).

BRUSELLYOZ XAVFLIMI?

Brusellyoz – dunyo bo'ylab keng tarqalgan zoonoz, infeksion-allergik kasallik bo'lib, insonlar va hayvonlar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ushbu infeksiya brusella turkumiga mansub bakteriyalar sababli yuzaga keladi. Brusellyoz uzoq davom etuvchi surunkali kasallik bo'lib, inson organizmiga ta'sir qilishi natijasida bo'g'im va mushak og'riqlari, harorat ko'tarilishi, terlash, charchoq va boshqa alomatlar bilan namoyon bo'ladi.

Brusellyozning asosiy qo'zg'atuvchisi – brusella bakteriyalari, ular odam organizmiga turli yo'llar bilan kirishi mumkin va uzoq vaqt davomida hayotiyligini saqlab qoladi.

Brusellyoz hayvonlardan odamlarga quyidagi holatlarda yuqishi mumkin:

- pasterizatsiya qilinmagan sut va sut mahsulotlari orqali bakteriyalar xom sutda, ayniqla, sigir, echki va qo'y sutida saqlanib qoladi. Uy sharoitida tayyorlangan pishloq va qatiq brusellyoz bilan kasallanish xavfini oshiradi;

- termik ishlov berilmagan go'sht mahsulotlari orqali yetarlicha pishirilmagan yoki qovurilmagan go'sht mahsulotlari (kabob, steyk, parli dimlangan go'shtlar) orqali;

- kasal hayvonlarni parvarishlash, bola tug'ishi davrida hayvonlarga yordam ko'rsatishda sanitariya-veterinariya qoidalariga rioya



qilmaslik natijasida yuqish ehtimoli yuqori bo'ladi;

- havo orqali yuqish – molxonalarda bakteriyalar chang va aerozol ko'rinishda nafas yo'llari orqali organizmga kirishi mumkin;

- ona qornida yuqish – homilador ayollarga brusellyoz kasalligi yuqsa, kasallik onadan bolaga ham o'tishi mumkin. Bu esa homiladorlikning tushishi yoki bolaning tug'ma brusellyoz bilan tug'ilishiga sabab bo'ladi.

Brusellyozning klinik belgilari infeksiya organizmga tushganidan keyin 5 kundan 2 oygacha vaqt oralig'ida namoyon bo'lishi mumkin.

Kasallikning kechishiga qarab u quyidagi shakllarga bo'linadi.

O'tkir brusellyoz – tana haroratining 38-40 gradusgacha ko'tarilishi, mushak og'riqlari,



terlash, holsizlik, bosh og'rig'i va ishtahaning yo'qolishi bilan boshlanadi;

Surunkali brusellyoz – kasallik uzoq davom etib, bo'g'im va suyaklarda og'riq, uyqu buzilishi, asabiylashish va umumiya zaiflik bilan kechadi.

Asimptomatik brusellyoz – ba'zi hollarda kasallik sezilarli alomatlarsiz o'tishi mumkin, lekin immun tizimi zaiflashganda qayta faollahishi ehtimoli bor.

Asosiy simptomlari:

- uzoq davom etuvchi tana haroratining ko'tarilishi;
- mushak va bo'g'im og'riqlari;
- tez charchash va holsizlik, terlash;
- jiwar va taloqning kattalashishi;
- asabiylashish, depressiya va uyqusizlik.

Oldini olish chora-tadbirlari: sut va sut mahsulotlarini pasterizatsiya qilish, chorva mollarini veterinariya ko'rigan o'tkazib turish, shahsiy-gigiena qoidalariga rioya qilish, go'sht mahsulotlariga to'liq termik ishlov berish.

"MENDAN BAXTLI ODAM YO'Q"

Kunlardan bir kuni bir podshoh kasal bo'lib qolibdi. Uni davolash uchun butun dunyodan tabiblarni chaqirishibdi, lekin hech biri podshohni davolay olmabdi. Shunda ularga bir donishmand maslahat qilibdi: agar bir baxtli odamni topib, uning ko'ylagi podshohga kiydirilsa, u tuzaladi. Baxtli odamni topish uchun dunyoning hamma tomoniga choparlar jo'natilibdi. Lekin hech kim "Men baxtliman", degan odamni topa olmabdi. Kimdir boy, lekin kasal, yana kimdir sog', ammo kambag'al, boshqasi boy, sog', biroq oilasi notinch - xullas, hamma nimadandir nolir edi.

Bir kuni tunda podshohning o'g'li shahar ko'chalarini aylanib yursa, bir hovlidan kimningdir gapini eshitib qolibdi. U: "Yaxshi ishladim,



pulimni oldim, qornim to'ydi, endi maza qilib uxlayman. Mendan baxtli odam yo'q", debdi.

Podshohning o'g'li sevinib ketib, tezda xizmatkorlarini jo'natibdi. Katta pul evaziga o'sha odamning ko'ylagini olib kelishni tayinlabdi. Xizmatkorlar hovliga kirib shahzodaning buyrug'ini bajarmoqchi bo'lishibdi, lekin qarasha, haligi "baxtliman" degan odam shunchalar qashshoq ekanki, uning faqat bittagina eski uvasi chiqib ketgan ko'ylagi bor ekan, xalos.

Xulosa: Baxt matohda emas. Odam o'zini bir muddat bo'lsada baxtli his qilishi uchun boy bo'lishi shart emas, balki boriga shukr qilishi kifoya.

Akbarsho Rasulov.



QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR

ORZU

Suriyada bolalardan so'rashdi.

- Katta bo'lsalaring kim bo'lasizlar?

Bolalar quvongancha deyishdi:

- Biz ham katta bo'lamizmi?

Hulkar Murtazayeva.

UMR MANZARALARI

Amal kursisida edi. Telefon jiringladi. Ekrandagi tanish raqamlarni ko'rib g'ijindi, aft-basharasini bujmaytirib qarab turaverdi. Ovozi tingach kreslosiga yastandi, kibr bilan shiftga qaradi.



Ishdan ketgan paytlari. Yana telefon ji-ringladi. Ekrandagi tanish raqamlarni ko'rib yuzi yorishdi, lekin olmadidi, ola olmadidi. Ovozi tingach yostiqqa suyandi, yer chizib ko'zlarini yumdi.

Sodiq Norboyev.

SABOQ

Umrining so'nggi kunlarini bedavo dard bilan bir soniya bo'lsa ham yashash ilinjida o'tkazayotgan bemorning yoniga kelgan yangi xonadosh uning holatini nursiz nigohidan bir zum his qildi-yu, o'zidan uyalib kiyimining yoqasi bilan bo'yinda qolgan arqon izlarini berkitdi...

Alima.



HIKMATLAR XAZINASI

- Gulning go'zalligi urug'idan; insonning husni esa qalbidandir.
- Har holni xayr, har kechani qadr, har kelganni Hizr bil.
- O'ylaring so'zlaringga, so'zlarining fe'lingga, fe'ling

taqdiringga nuqs etadi. Go'zal o'yla, go'zal yasha.

• Inson tabassumi bilan tarbiyasini, nimaga kulgani bilan saviyasini namoyon qiladi.

Jaloliddin Rumiy.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

Buyuk astronom, matematik va geograf, Nil daryosida "nilomer" degan mashhur inshootni yaratgan, nomiga Turkiyaning birinchi sun'iy yo'ldoshi va koinotni o'zlashtirish kompaniyasi qo'yilgan ajdodimiz kimligini bilasizmi?



Kombinatimizda yangi qurilgan Quyuv-prokatlash majmuasiga jahonga mashhur bo'lgan qaysi kompaniya metallurgiya uskunalarini yetkazib berib, or'natmoqda?

Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan Zoldir prokatlash bo'linmasi kran mashinisti Jamila Tursunqulova

qanday mukofot bilan taqdirlandi.

2002-yilda nega O'zbekistonda po'lat ishlab chiqarishda yangi bosqich bo'ldi, deyiladi?

Tayvan orolida nega ba'zi uyлarda to'rtinch qavat va mana shunday raqamli xonardonlar yo'q.

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savol-larning javoblari.

* Ko'mir

* Yoshlik, sog'liq va tinchlik.

* Gazetaga "Yosh milliarder erkak uylanish uchun yozuvchi Jeyms Rivz romanidagi bosh qahramonga o'xshab ketadigan qiz bilan tanishishni istaydi", deb e'lon beriladi.

* Abdulla Avloniy aytganidek tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

- Kim sherga tegsa, o'shaning dabdalsini chiqaraman, - debdi.

Boshliq xodimdan so'radi:

- Nega ishga kech qoldingiz?

- O'zingiz nega maoshni kechiktiryapsiz?

- Kechiktirsam ham, baribir, olyapsiz-ku!

- Men ham kechikkanim bilan ishga kel-yapman-ku!